

MAKTAB NIMA UCHUN KERAK?

Madina, nima uchun biz yana maktabga keldik? Axir biz o'qishni, yozishni va hisoblashni bilib oldik-ku.



Akmal, o'rganishimiz kerak bo'lgan qiziqarli narsalar juda ko'p. Bunda bizga maktab va ustozlarimiz yordam beradi.

Men matematikani juda yaxshi ko'raman. Keyin koinotga, yulduzlarga ham qiziqaman.



Demak, senga astronomiya fanini o'rganish ham yoqadi. Men esa kompyuter savodxonligi bo'yicha darslar boshlanishini kutyapman.



Siz nimalarga qiziqasiz?






Odamlar qadimdan atrofdagi olam haqida bilishga qiziqib, uni kuzatganlar, savollariga javob topishga intilganlar. Vaqt o'tishi bilan bu izlanishlar natijasida yangi fanlar paydo bo'lgan. Ilm-fan bilan shug'ullanadigan insonlar olimlar deyiladi.

Astronomlar yulduzlarni kuzatadilar va koinotni o'rganadilar. Geograflar Yerni, ya'ni biz yashayotgan sayyorani o'rganadilar. "Geografiya" so'zi yunon tilida "yerni tasvirlamoq" degan ma'noni anglatadi. Biologlar tirik tabiatni, tarixchi olimlar esa odamlarning o'tmishdagi va hozirgi hayotini o'rganadilar. Fiziklar tabiat qonunlari, kimyogarlar esa moddalar xususiyatlari haqida izlanadilar.



Rasmlarga qarang. Bu kashfiyotlar uchun qaysi fanlar asos bo'lgan?




Velosiped



Telefon



Antiseptik



To'rtburchak tarvuz




Bilimlar barcha faoliyat turlari uchun zarur bo'ladi. Ular odamlar, buyumlar va tabiat hodisalarini tushunishga yordam beradi. Bilimlar voqealarni tushuntirish va oldindan bilish, muammolarni hal qilish, to'g'ri noto'g'ridan, yaxshini yomondan ajratishni o'rgatadi.

Yangi bilim va g'oyalar tufayli telefon, samolyot, internet, dori-darmonlar va boshqa kashfiyotlar yaratilgan.



Quyidagi asboblardan qaysilari olimlarga tadqiqot uchun kerak bo'ladi?



O'rtoqlaringiz bilan biror yangi narsa o'ylab topishga harakat qiling. Buning uchun nimalarni bilishingiz kerak bo'ladi?



Mirzo Ulug'bek yulduzlari



Mirzo Ulug'bek yoshligidan ko'p vaqtini kutubxonada o'tkazar, tinmay kitob o'qir edi. Bu kitoblarni uning bobosi – Sohibqiron Amir Temur to'plagan edi. Mirzo Ulug'bek ayniqsa matematika va astronomiyaga qiziqardi. Shuning uchun yulduzlarni kuzatadigan inshoot – rasadxona qurishni orzu qilardi. Mirzo Ulug'bek Samarqandda o'zi orzu qilgan rasadxonani qurdirdi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi o'sha paytda dunyodagi eng mukammal asboblardan biri bilan jihozlangan edi. U tuzgan “Yulduzlar jadvali” (“Zij-i Ko'roniy”) esa butun dunyoga mashhur bo'ldi. Bu kitobda tarixda birinchi marta yulduzlarning joylashuvi aniq ko'rsatilgan. Bunday ilmiy tadqiqot jahon astronomiya fanining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.



1. Ulug'bek rasadxonasi qaysi shaharda joylashgan?
2. Mashhur bo'lish uchun olimga qaysi fanlar yordam berdi?
3. Mirzo Ulug'bek ilm-fan taraqqiyotiga qanday hissa qo'shgan?



Men neytron yulduzlarni o'rganaman. Neytron yulduzlar koinotdagi eng kichik, eng zich yulduzlardir. Ularning og'irligi Quyoshdan ikki baravar og'ir.

Bugungi kundagi ilmiy kashfiyotlar tadqiqotchilar jamoasining mashaqqatli mehnati mahsulidir.

Olim hatto daho bo'lsa ham, bir o'zi to'laqonli tadqiqot olib bora olmaydi.

Zamonaviy olim butun dunyodagi tadqiqotchilar bilan muloqot qilib turishi shart.

Ahmadjon Abdujabborov,
fizika-matematika fanlari doktori, professor



Nima deb o'ylaysiz, qadimgi va bugungi kundagi olimlarning o'xshash va farqli jihatlari nimada?



O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.

Endi men ... ekanini bilib oldim.
Endi men ... bilaman.



Kitoblar va internetdan foydalanib, bilim haqida maqollar toping. Ularni daftaringizga yozing.